

CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK MASHG'ULOTLARINING TURLARI, METODLARI VA O'QITISH VOSITALARI.

Xushvaqto'v Sharif Adilovich

Shahrisabz "Temurbeklar maktabi"

Harbiy-akademik litsey o'qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqola umumiy o'rta ta'lim maktablarida va akademik litseylarda Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchilari uchun ChQBTfanidan mashg'ulot o'tishga yordamchi vosita sifatida qo'llanilish uchun mashg'ulotturlari, ullaqlari haqida ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: ChQBT, nizom, saf, qurol, ma'ruza, mashq, suhbat, bayon, amaliy ish, video metod

Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik darslarining asosiy turlari.

- Nazariy ma'lumotlar asosida yangi bilim beruvchi dars
- Bilim va malakalarni mustahkamlash darsi. Dars amaliy shaklda, joylarda, saf maydonida, harbiy xonada o'tkaziladi.
- Bilim va ko'nikmalarni tekshirish (nazorat) darsi. U og'zaki savol-javob, nazariy (yozma) ishlar yoki amaliy mashg'ulotlar (saf ko'rigi, qurol bilan usullarni bajarish va hokazo), nazorat ishlari va mashqlarni o'z ichiga oladi.

- Qo'shma dars harbiy ta'lim tizimida eng keng tarqalgan dars turi.

U boshqa dars turlariga oid elementlarning barcha yoki katta qismini tashkil etadi: yangi bilimlarni berish, tekshirish, mustahkamlash va boshqalar.

ChQBT mashg'ulotlarida dars shakllari

- Nazorat mashg'uloti.
- Nazariy va amaliy mashg'ulotlar.
- Taktik va taktik saf mashg'ulotlari.
- Ko'rgazmali mashg'ulotlar.

Ta'lim berish jarayoni quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- o'quvchilar oldiga topshiriq qo'yish;
- o'quvchilarda bilimga bo'lgan qiziqishni hosil qilish;
- o'quvchilar tomonidan yangi materialning qabul qilinishi;
- qabul qilingan materialni tahlil qilish,
- umumlashtirish, ilmiy tushunchalarni hosil qilish;
- qonunlarni o'zlashtirish;
- egallagan bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirish;
- malaka va ko'nikmalarni shakllantirish;
- bilim, malaka va ko'nikmalarni qo'llash;
- o'quvchilar egallagan bilim, malaka va ko'nikmalarni tekshirish;
- ta'lim berish natijalarini tahlil qilish.

O'qituvchining mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rishining ketma-ketligi.

Mavzuni, baholash mashg'ulot joyini, o'quv-tarbiyaviy maqsadni aniqlash.

O'quv savollarini belgilash va ularni ommalashtirish vaqtini bo'lib chiqish.

Mashg'ulotni olib borish uchun samarali uslublarni aniqlash, belgilash.

Adabiyotlarga muvofiq bo'limlarni o'rganib chiqish, qo'shimcha adabiyot va nizomlardan moddalarni bilish.

O'rganiladigan materialni boshqa umumta'lim fanlari bilan bog'liqligini aniqlash zarur hollarda fan o'qituvchilari bilan suhbatlashish va darslariga qatnashish.

Kerakli ko'rgazmali materiallarni saralab, tanlab olish.

Namoyish etiladigan mashq va usullarini mashq qilish.

Mashg'ulot o'tkazishga sinfdagi o'quvchilar ichidan oldindan tayinlangan komandirlari bilan yo'riqli, uslubiy mashg'ulot o'tkazish.

Dasturning o'quv bo'limlari bo'yicha texnologik xaritalarini tuzish.

Texnologik xaritalarga ilovalar tayyorlash.

Mashg'ulot o'tish rejasini tuzish va tasdiqlatish.

Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani ashg'ulotlarida ta'lim berishning ilgor uslublari.

Ta'lim uslublari – ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining birgalikdagi, ya'ni bilimsizlarni bilimga, malakasizlarni malakaga yetaklovchi faoliyat vositalari.

Bayon etish – asosiy o'quv materiallarni tashkil qiluvchi hodisa va voqealarni qisqa, obrazli, emotsional bayon qilib berish. Bayon qilishning hikoya shakli bilan bir qatorda unda muhokama, tasvir elementlari ham mavjud.

Tushuntirish – murakkab savollar, qoidalar, tamoyillar, qonunlar va namoyish etishlar bilan birikkan, qurol va priborlarning qismlari, sxemalar, harakat usullari qat'iy tartibini mantiqiy bayon etish.

Ma'ruza – bayon etiladigan materialni keng yoyilgan nazariy yetkazilishining ilmiy tahlili. Ma'ruzaning bosh maqsadi ta'lim oluvchiga ularning kelgusi mustaqil ishida yordam berishdan iborat.

Suhbat – o'quvchilarni yangi bilimlar bilan sodda va tushunarli qilib boyitishning ma'qul imkoniyatlaridan biri. Bu yerda suhbat o'quv materialini muhokama qilish shakllaridan biri sifatida ko'rib chiqiladi.

Mashq qilish – o'quvchilarda malaka va ko'nikmalarni hosil qilish, ularni takomillashtirish maqsadida ma'lum bir usul va harakatlar murakkablashtirilib boriladigan bir necha bor takrorlash.

Amaliy ish – qurol va jangovar texnika xizmati, saqlanishi, tejalishi, qurolni qismlarga ajratish va yig'ishni bajarish. U o'qitishning yakunida muhim va amaliy uslub hisoblanadi.

Ta'lim amaliyotida kompleks uslub eng keng tarqalgan.

Bunda bir mashg'ulotda ta'lim- tarbiyaning bir nechta uslublari ishlatiladi.

Taktik-saf va taktik mashg'ulotlariga ta'lim oluvchilar avtomat maketlari, gazniqoblar, piyoda askar belkuragi, kurakcha g'iloqlari hamda bayroqchalar bilan chiqadi.

Dasturlashtirilgan ta'lim uslubi – o'quv materialini qismlarga yanada samaraliroq ajratish, mashg'ulot rahbarining joylardan ma'lumotlarni, ya'ni ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv materialining har bir qismi o'zlashtirilishi sifati haqida qaytarma aloqalar yordamida uzluksiz olish.

Muammoli olib borish usulida o'quvchilarga so'nggi xulosalar e'lon qilinmaydi, balki faqat to'g'ri qaror qabul qilish va haqiqatga erishish uchun kerakli to'g'ri yo'l-yo'riqlar ko'rsatiladi.

Ta'lim oluvchilarga o'ta muhim qoida, sana, ta'rif, atama hamda nomlar haqida tushunchalar, ular bilan bog'liq hodisa-voqealar tayanch konspektlari ta'lim uslubi yordamida beriladi.

Musobaqali uslub – kim tez va yaxshi harakat qilishni tashkil etish, o'rnatilgan me'yorlarni belgilangan vaqtda va sifatli bajarish. U ta'lim oluvchilarda tirishqoqlik, ilg'orlarga tenglashishga intilish, ortda qolganlarga yordam berish va ularni ilg'orlar darajasiga yetkazish xislatlarini rivojlantirish uchun yo'naltirilgan musobaqali uslub bo'lib, taktik, otish, saf tayyorgarligi va boshqa bo'limlar bo'yicha usullarni ishlab chiqishda va me'yorlarni bajarishda ishlatiladi.

O'QITISH VOSITALARI:

O'qitish vositalari – o'quv materialini ko'rgazmali taqdim etuvchi, shu bilan birga o'qitish samaradorligini oshiruvchi yordamchi materiallar.

O'qitishning texnik vositalari (O'TV) o'quv materialini ko'rgazmali namoyish etish, uni tizimli yetkazib berishga yordam beradi hamda o'quvchilarga o'quv materialini tushunish va yaxshi eslab qolish imkonini beradi.

Yordamchi o'qitish vositalari (YO'V) – grafik, chizma, namuna va hokazalar.

O'quv-uslubiy materiallari (O'UM) – o'quv materiallari, o'zlashtirilgan o'quv materiallarini mustahkamlash uchun mashqlar majmui. Ular o'quvchilarning mustaqil ishlarini faollashtirishga yordam beradi.

Grafik tashkil etuvchilar–fikriy jarayonlarni ko'rgazmali taqdim etish vositalari.

1-guruh. Ma'lumotlarni tarkiblashtirish va tarkibiy bo'lib chiqish, o'rganilayotgan tushuncha (voqea va hodisalar, mavzular) o'rtasidagi aloqa va o'zaro bog'liqlikni o'rnatish usul va vositalari: "Klaster", "Toifalash jadvali", "Insert", "B/B/B jadvali".

2-guruh. Ma'lumotlarni tahlil qilish, taqqoslash usul va vositalari: "T-jadvali", "Venn diagrammasi", Klassik juftliklar.

3-guruh. Muammoni aniqlash, uni hal etish, tahlil qilish va rejalashtirish usul

va vositalari: “Nima uchun?”, “Baliq skeleti”, “Piramida”, “Nilufar guli” sxemalari, “Qanday?” iyerarxik diagrammasi, “Kaskad” tarkibiy-mantiqiy sxemasi.

Usullar guruhi	O‘zaro bog‘liq faoliyatni tashkillashtirish	Faoliyat mazmuni
I guruh	ma’ruza, hikoya, tushuntirish, yo‘riqnoma berish,	Ta’lim beruvchi eng kam vaqt ichida katta hajmdagi o‘quv axborotini yetkazadi va xotirada qabul qilish, anglash va yig‘ishni tashkillashtiradi.
	namoyish, ko‘rsatish, videousul.	Ta’lim oluvchilar xotiraga qabul qiladi, angelaydi, yig‘adi, biroq xatosiz, ongli ravishda qayta tiklamaydi.
	Muloqot	Texnologiyaning tasnifi. Ushbu texnologiya o‘quvchilarning dars jarayonida mustaqil fikrlashga, o‘z fikrlarini erkin bayon etishga hamda ularda bahslashish madaniyatini tarbiyalashga qaratilgan bo‘lib, odatda, bunday mashg‘ulot o‘quvchilarni kichik guruhlariga ajratilgan holda o‘tkaziladi.
II guruh	kitob bilan ishlash, laboratoriya usuli, mashq qildirish,	Ta’lim beruvchi bilimlarni o‘zlashtirish va mustahkamlash, yangi bilimlarni qidirish, namuna bo‘yicha harakatlarni bajarish malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha ta’lim oluvchilar faoliyatini tashkillashtiradi.
	amaliy ish usuli, vaziyatlar usuli.	Ta’lim oluvchilar bevosita ta’lim beruvchi boshchiligida tahlil qiladi, taqqoslaydi, umumlashtiradi, tayyor namuna bo‘yicha amaliy harakatlarni bajaradi.

III guruh	suhbat	<i>Ta'lim beruvchi</i> bilimning bir qisminigina ma'lum qiladi, ta'lim oluvchilarni bilimni izlab topish qadamlarini bajarishga yo'naltiradi, turli muammoli vaziyatlarda o'qish-o'rganish jarayonini tashkillashtiradi.
	bahs	
	aqliy hujum	
	ta'limiy o'yin	<i>Ta'lim oluvchilar</i> ta'lim beruvchining kuzatuv ostida mustaqil taqqoslaydi, umumlashtiradi, xulosa qiladi, baholaydi va tahlil qiladi, muammoli holatlarni hal etadi va nostandart topshiriqlarni yechadi, murakkablash-tirilgan sharoitdagi amaliy harakatlarni bajaradi.
	pinbord	
	insert	

Metodlar samaradorligining asosiy mezonlari.

- belgilangan vazifalarni hal etish uchun uni qo'llashning mosligi va tejamkorligi.
- uni qo'llashda soddalik va osonlik.
- eng yaxshi natijalarni ta'minlashi, balki ularga erishishning yuqori ishonchliligini ta'minlay olishi.

Ta'lim berish metodlarini tanlash omillari.

- O'quv-axborot mazmuni hajmi va murakkabligi
- Ta'lim berish usullari, o'quv-axborotini egallashiga ta'siri
- Ta'lim oluvchilarning o'quv imkoniyatlari
- Vaqt sarfi
- Ta'lim berish sharoitlari
- Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning xususiyatlari
- Ta'lim oluvchilar soni
- Ta'lim beruvchining chuqur bilimdonligi va shaxsiy sifatleri
- Maqsadni belgilash.

An'anaviy ta'lim metodlari

Og‘zaki	Ko‘rgazmali	Amaliy	Kitob bilan ishlash	Videometod
Hikoya, suhbat, tushuntirish, ma’ruza, munozara	Demonstratsiya	Mashq, amaliy, laboratoriya, didaktik o‘yinlar	O‘qish, o‘rganish, reja tuzish, konspekt qilish	Ko‘rish, o‘rganish, nazorat qilish

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik o‘quv fani dasturi, – 2025 y.

Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik o‘quv fani darsligi Toshkent – 2025 y.

Ro‘ziyeva D., Usmonboyeva M. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi. Metodik qo‘llanma. Toshkent. Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti. – 2013. – 136 bet.

Sotvoldiyev A. Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fanini kasbiy sohalarga yo‘naltirib o‘qitish. O‘quv-metodik qo‘llanma. TDPU, – 2012.

Sotvoldiyev A. Chaqiriqqacha harbiy ta’limni tashkil etish va uning metodikasi.